



To'g'ay Murodning Ot kishnagan oqshom qissasida milliylik masalasi tahlili

**Qodirova Feruza Bonu
Zuxridin qizi**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti filologiya fakulteti O'zbek
tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi. E-
mail : zuxriddintojiboyev41@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida milliy ruh, qishloq hayoti, insonning ichki kechinmalarini juda ta'sirli va o'ziga xos uslubda tasvirlagan yozuvchi To'g'ay Murodning

Ot kishnagan oqshom qissasida ozbek millatining o'ziga xos bolgan ananalari, qadriyatlari haqida fikrlar yuritiladi. Milliylik xalq yoki millatga xos bo'lgan tarixiy xotira, urf-odatlar, ananalar, til, madaniyat, dunyoqarash va ruhiy qadriyatlar majmuidir. Togay Murod asarlarida esa bularni yaqqol namunalarini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: To'g'ay Murod, milliylik, Surxondaryo, xalqning turmish tarzi, ko'pkari.

Annotation. This article discusses the distinctive traditions and values of the Uzbek nation as portrayed in the story "Ot kishnagan oqshom" by Togay Murod, a writer who masterfully and uniquely depicts the national spirit, rural life, and the inner emotions of people in Uzbek literature. Nationality is the totality of historical memory, customs, traditions, language, culture, worldview, and spiritual values specific to a people or nation. In the works of Togay Murod, we can clearly observe vivid examples of these elements.

Keywords: Togay Murod, national identity, Surkhondaryo, the peoples way of life, kopkari (buzkashi).

Аннотация. В данной статье рассматриваются самобытные традиции и ценности узбекской нации, отражённые в повести «От кишнаган окшом» («Вечер, когда ржал конь») писателя Тогай Мурада, который мастерски и своеобразно изображает в узбекской литературе национальный дух, сельскую жизнь и внутренние переживания человека. Национальность — это совокупность исторической памяти, обычаев, традиций, языка, культуры, мировоззрения и духовных ценностей, присущих народу или нации. В произведениях Тогай Мурада мы можем ясно увидеть яркие примеры этих элементов.

Ключевые слова: Тогай Мурад, национальная идентичность, Сурхандарья, уклад жизни народа, купкари (козлодрание).

Kirish:

Ozbek adabiyotida milliylik masalasi doimo muhim mavzulardan biri bolib kelgan. Ayniqsa XX asr ikkinchi yarmida ijod qilgan yozuvchilar asarlarida xalqning ruhiyati, qadriyatlari va milliy oziga xosligi badiiy jihatdan chuqur talqin etildi. Ana shunday yozuvchilardan biri- To'g'ay Murod bo'lib uning *Ot kishnagan oqshom* qissasi milliylikni badiiy idrok etishning yorqin namunasidir. Mazkur asarda milliylik masalasi nafaqat voqealar tasvirida, balki qahramonlar xarakteri, ularning dunyoqarashi, nutqi hamda tabiat manzaralari bilan uygun holda yoritiladi. Ot obrazi esa ozbek xalqining erkinlik, matonat va sadoqat timsoli sifatida talqin etilib, milliy

ruhni ifodalovchi muhim badiiy vositaga aylanadi. Shu bois "*Ot kishnagan oqshom*" qissasi milliy qadriyatlarni anglash va ularni badiiy tafakkur orqali tahlil qilishda muhim manba bolib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada Togay Murodning mazkur qissasi misolida milliylik masalasining badiiy talqini, uning qahramonlar ruhiyati va asar goyasidagi orni tahlil qilinib, yozuvchining milliy adabiyotimiz taraqqiyotidagi oziga xos orni yoritiladi.

Asosiy qism:

To'g'ay Murod asarlarining o'ziga xosligi va boshqalardan ajralib turishining sabablari, avvalam bor, davrning ijtimoiy masalalari, insonning axloqiy qiyofasi, mehnatga, insonlarga munosabati tashvishga soladi. Majburiyat, mehnatkashlik, jasorat, haqqoniylik, samimiylik, mehribonlik- shular yozuvchi badiiy so'z orqali ifoda etgan insoniy hislatlardir. To'g'ay Murodning *Otkishnagan oqshom* qissasini yozishda o'z xalqining ya'ni Surxon vohasining to'laqonli hayoti haqida o'z shaxsiy tajribalariga tayangan xolda yozadi. Bundan tashqari, o'zi otni boqadi ushbu jarayondagi qiyinchiliklarni boshidan o'tkazgan xolda yozishga kirishadi. Aynan shuning uchun ham ushbu asar jonli va o'quvchi uchun juda tushunarlidir. Yozuvchi o'z asarida millatimizga xos bo'lgan halollik va mardlikni o'zida mujasamlashtirgan obraz Ziyodulla kalni ya'ni elning mashhur chavandozini yaratadi va shu orqali jamiyatimizda millatimizga, o'zligimizga zid bo'lgan illatlar bilan kurashadi. G'irromlik ro'y bersa, u to'g'risini aytadi. To'g'rilik Ziyodulla kalning qonida bor. Ziyodulla kal bir to'yda o'yinga chilvir slogan chavandozlarni ko'rib nafratlanadi. Birodarlar, chavandozlar nimaga etagini qoqib ketyapti? Adolatga! Nimaga tupurib ketyapti? Adolatdan! Bir to'da nomard imonsizga achchiq qilib, adolatni o'tga tashlab ketayapti! va Ziyodulla adolat osmonda deguvchilarga qarata shunday deydi: Yo'q birodarlar, adolat yerda! Oyoqlarimiz ostida! Adolat tuproqqa qorishib yotibdi! Adolatni kim bundayin xor qilayapti? Biz-o'zimiz! albatta yozuvchi ana shunday g'oyalar va asarlar bilan jamiyatda avj olayotgan ba'zi bir muammolar bilan kurashadi va milliylik, millat ruhi abadiy bo'lishi uchun harakat qiladi. Shu orqali ha,m ushbu asar kishini o'ylashga va fikr yuritishga majbyr qiladi. Qissada tasvirlangan qishloq muhiti o'zbek xalqining an'anaviy turmush tarzini aks ettiradi. Yerga mehr,mehnatga sadoqat, kattaga hurmat, ichki or-nomus, mehribon xalq tushunchalari milliy tafakkur bilan uzviy bog'liq holda ko'rsatiladi. Qahramonlarning gap-so'zi, fikrlash tarzi va munosabatlarida xalqona ruh ustuvorlik qiladi. Asarda har bir detal bir nimalarni ifoda etishi bilan o'z o'rniga ega. Qissadagi eng muhim ramz esa bu ot hisoblanadi. O'zbek xalqida ot qadimdan sadoqat, erkinlik va g'urur timsoli bo'lib kelgan. Ot obrazi orqali

yoʻzuvchi milliy ruhni-erkin yashash istagi, insoniy qadr-qimmat va tabiiylikka intilishi ochib beradi. Bu ramz milliy ong va tarixiy xotira bilan chambarchas bogʻliq. Toʻgʻay Murod qissaning tilida xalqona iboralar, jonli dilaloglar va milliy ohanglardan mohirona foydalanadi. Muallifning uslubi soddaligi bilan birga chuqur maʼno kasb etadi. Mahalliy shevaga xos soʻzlar, oʻzbekona tashbeh va metaforalar asarning milliy ruhini yanada kuchaytiradi. Til- milliylikning eng muhim koʻrinishlaridan biri sifatida qissada yetakchi oʻrin egallaydi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda Ot kishnagan oqshom qissasi Toʻgʻay Murod ijodida milliylikning yuksak badiiy talqinini namoyon etadi. Asarda milliylik tashqi belgilar orqali emas, balki, inson ruhiyati, ramziy obrazlar, til va muhit orqali chuqur ochib berilgan. Ushbu qissa oʻzbek nasrida milliy ong va badiiy tafakkurning yetuk namunalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Toʻgʻay Murod, Ot kishnagan oqshom, qissa, Toshkent, Nurafshon-kitobta minot, 2022, 176 b.
2. <https://share.google/m4SRrUatoQESI02JP>
3. <https://share.google/U26tg5o8Jshh6TzrD>